

YANGI O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI ASOSIY "DRAYVER"  
SOHAGA AYLANTIRISH

Qo'zimurodova Sabohat Mamatmuso qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti**"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi 8BH-20-guruh talabasi*e-mail: [sabohatqozimurodova37@gmail.com](mailto:sabohatqozimurodova37@gmail.com)

tel: +998970756535

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"ga asosan Yangi O'zbekistonni barpo etishda iqtisodiyotni transformatsiya qilishda raqamli iqtisodiyot tizimini ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirishni ilmiy asosi, hamda uni amalga oshirishdagi amaliy islohotlar, imkoniyatlar va kamchiliklar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, drayver, raqamli dunyo, raqamli texnologiyalar, elektron boshqaruv, telekommunikatsiya, internet, veb-sayt, elektron hukumat.*

Bugungi kunda globallashtirish jarayoni butun jahonni qamrab oldi. Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyalashuv kuchayib yangi fazaga chiqdi. Jahon hamjamiyatining ijtimoiy - iqtisodiy birlashuvida axborot kommunikatsiya texnologiyaning o'zini judda kattadir. Bugungi kunda birorta soha yo'qki axborot texnologiya kirib bormagan bo'lsa. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Boshqa barcha sohalar kabi iqtisodiy tizimda ham axborot texnologiyaning roli ortib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ananaviy iqtisodiy munosabatlardan endilikda raqamli iqtisodiyotga o'tish amaliyoti butun dunyoda kuzatilmoqda.

Ho'sh iqtisodiyotning raqamlashishi nega buncha rivojlanayapti raqamli iqtisodiyot o'zi nima shu o'rinda unga ta'rif keltirib o'tsak:

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiriq qilishdir.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish texnologik jarayonlarni takomillashtirish, mahsulot sifatini oshirish, tannarxni optimallashtirish va odamlarning turmush darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida qaraladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlarni amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Nima uchun raqamli

iqtisodiyotni aynan asosiy “drayver” sohaga aylantirmoqchimiz? “Drayver” o’zi bu – kompyuterdagi qurilmalarni operatsion tizim bilan bog’lab beruvchi maxsus dastur hisoblanadi. Bu dastur bo’lmasa kompyuterdagi qurilmalar umuman ishlamaydi. Misol uchun, kompyuter sotib oldik undagi wi-fi modul yoki ovoz chiqmayapti bu ko’pchilikka tanish holat shundaymi demak bundan anglashimiz kerakki drayversiz kompyuterimiz temirning o’zi xolos. Bundan ko’rinib turibdiki raqamli iqtisodiyotni yurtimizda asosiy drayverga aylantirsakkina iqtisodiyotimiz barqarorlashadi. O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o’tish qachondan rivojlana boshladi? Yurtimizda raqamli iqtisodiyotga o’tish davri aynan pandimeya tarqalishiga borib taqaladi. O’zbekistonda 2020 yil mart oyidan boshlab karantin e’lon qilindi va ko’pgina xizmatlar murakkablashdi albatta bu iqtisodiyotimizga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmadi.

Darhaqiqat, zamonaviy texnologiyalar raqamlashishi dunyoni o’zgartirmoqda shunday ekan boshqa rivojlanayotgan davlatlar singari yurtimizga ham kirib kelayotgan raqamli iqtisodiyotning o’rni beqiyosdir. Zamonaviy raqamli iqtisodiyotning xarakatlantiruvchi kuchi insonlar bo’lib, ularning asosiy vazifasi axborot yaratish va undan foydalanishdan iborat bo’ladi. Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog’liq bo’lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy faoliyat bo’lib, u insonlar uchun qulayliklarni ta’minlagan holda mahsulot va xizmatlarni yaratuvchi virtual muhit hisoblanib, raqamli texnologiyalardan foydalaniladi va har kuni onlayn tarzda odamlar, bizneslar, qurilmalar, ma’lumotlar va jarayonlar orasidagi millionlab bog’lanishlarni amalga oshiruvchi tizimdir. Iqtisodiy foaliyatlarning keng xilma-xilligi raqamlashtirilgan ma’lumotlar va bilimdan asosiy omil sifatida foydalaniladi.

Iqtisodiyotning barcha jabhalarida ulardan samarali tarzda foydalanish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya tez sur’atda o’zgarayotgan bugungi kun dunyosi uchun asosiy vositadir. Bundan tashqari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosida mamlakat iqtisodiyotida jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham davlatga, ham aholiga va eng muhimi tadbirkorlarga qo’shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratadi. Natijada mamlakatda qulay ishbilarmonlik hamda qulay investitsion muhit yaratiladi. Qulay investitsion muhitning yaratilishi esa mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hajmining oshishidan dalolat beradi. Raqamli iqtisodiyotni mamlakatimizda rivojlantirmoqchi ekanmiz avvalo keling shu bo’yicha yuqori natijaga erishgan mamlakatlar bilan tanishib chiqsak va ularning bosib o’tgan yo’liga bir nazar tashlasak: Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya, va Shvetsariya davlatlarida jadal sur’atlarda rivojlangan va raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar sirasiga AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, va Gongkong kiradi. Biz hozir dunyodagi iqtisodiyoti eng kuchli hisoblangan ikki davlat AQSH va Xitoy raqamli iqtisodiyotga o’tishda muhim deb hisoblagan strategiyasini keltirib o’tamiz:

1. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kerakli bo’lgan shart-sharoitlarini yaratish (ya’ni tegishli normative – huquqiy baza tashkil qilish)

2. Raqamli Transformatsiya qilinishga eng tayyor bo’lgan iqtisodiyot sub’etlarida raqamli iqtisodiyot platformalarining vujudga kelishi va global miqyosda ishga tushushi

3. Raqamli iqtisodiyot platformalarining o'zaro raqobat kurashi va ularning asta-sekinlik bilan integratsiyalashuvi amalga oshishi

4. Raqamli iqtisodiyot sohasidagi eng perspektiv yechimlarni butun iqtisodiyotga joriy qilish.

Biz ham mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning AQSH va Xitoy mamlakatlarida sinovdan o'tgan shunday strategiyasini tanlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Xuddi shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 31 avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror qabul qildi, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2021-yilning 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risi"gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin. Ushbu qaror bo'yicha quyidagilar raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar deb ko'rsatilgan:

- Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish uchun kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayning, smart kontrakt, konsalting, emissiya, ayriboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, shuningdek, blokcheyn texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish.


- Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ish ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash.

- Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash.

- Kriptoaktivlar bo'yicha faoliyat va blokcheyn texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish va ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish.

- Xorij tajribasini hisobga olgan holda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish.

Tahlillarga ko'ra birgina 2020 yilda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi 245 trillion so'mga baholandi. Bu esa xufiyona iqtisodiyot ulushi mamlakat yalpi ichki mahsulotining taxminan 48 foiziga to'g'ri keladi. (1-rasm)



### 2020 yilda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi.

Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy munosabatlarda inson omilini kamaytirib jarayonni shafofligini ta'minlash va shu oraqli makroiqtisodiy baraqarorlikni ta'minlash mumkin.

Raqamli iqtisodiyot deb takror va takror gapiryapmiz ammo buning afzalligi o'zi nimalarda va ijobiy jihatlari qanday keling endi hozirgi muhokamani shu tomonga yo'naltirsak.

#### Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzoniga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini boshqa afzalliklari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarishda mehnat samadorligini oshishi;
- kompaniyalarning raqobatbardoshligini o'sishi;
- ishlab chiqarishdagi xarajatlarning kamayishi;
- yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;
- kambag'allikni yengish va ijtimoiy tengsizlikni yo'qolishi.
- raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulotlarni izlash xarajatlari keskin kamayadi, chunki istalgan ma'lumotni online qabul qilish offline qabul qilishdan osonroqdir;
- raqamli iqtisodiyotda mahsulotlarni tashish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish xarajatlari nolga teng;
- raqamli texnologiyalar yordamida iste'molchining xarakterini osonlik bilan

o'rganish mumkin. Bu esa o'z o'rnida birga-bir (one to one) bozorlarni yaratadi;

Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi mamlakatlararo biznes faoliyatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida katta rivojlanishlar bo'lmoqda va bular kompaniyalar faoliyatining turli sohalarida o'z ifodasini topishi mumkin. Internet orqali butun dunyo bo'ylab o'z mahsulotlarini sotuvga qo'yib online savdoni yo'lga qo'yishlariga imkoniyat yaratadi. Kichik investitsiyaga ega bo'lgan kompaniyalar paydo bo'lib, tez fursatda o'sib rivojlanishi mumkin. Iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirishda bugungi kundagi zamonaviy axborot texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini kattadir. Raqamli iqtisodiyotga aloqador o'zgarishlar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar uchun yangi bozor qoidalarini vujudga keltirishiga zamin yaratadi. Buning natijasida kompaniyalar yangi raqobat strategiyalarini qidirishi va raqobat samaradorligini oshirishlarini talab qiladi. So'nggi bir necha yil davomida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bular raqamli iqtisodiyotning bor yo'g'i bir nechta afzalliklari xolos. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizning kundalik hayotimizga ijobiy ta'sir qiladi, oddiy foydalanuvchiga ko'plab qo'shimcha imkoniyatlar beradi va qolaversa, bozorni o'sishi va rivojlanishini ta'minlab berishi mumkin.

Har bir narsaning yaxshi va yomon tomonlari bo'lgani singari, raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarning ham ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Quyida raqamli texnologiyalar va raqamli ma'lumotlarni salbiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyot keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflar

- Kiber hujum xavfi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq muommolar;
- ishsizlikni oshishi, axborot texnologiyalarini rivojlanishi va uni tadbiiq qilinishi ortidan

bir qancha sohalar va kasblar yo'q bo'lib ketishi mumkin.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishida bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

- internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi;
- axborot texnologiyalari va boshqaruv organlari sohasida mutaxassislarining yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqicha - bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotning omili bo'lgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun eng avvalo respublikamizda internet tezlikini oshirish va narxini optimallashtirish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, aholining kompyuter va kompyuter dasturlari bilan ishlash bilim va ko'nikmasini oshirish, raqamli

iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bularni amalga oshirish uchun bir qancha amaliy vazifalarni yo‘lga qo‘yish lozim. Jumladan, kompyuter kurslarini tashkil etish, elektron savdo maydonchalarini rivojlantirish, elektron hujjat almashish tizimini takomillashtirish, aholiga innovatsion raqamli texnologiyalar (krepto valyutalar, davlat xizmatlarining innovatsion turlari ya’ni “Elektron hukumat”) haqida ko‘proq va kengroq ma’lumot berish, oliy ta’lim muassalarining iqtisodiyot sohasida ta’lim olayotgan kelajak kadrlarini “raqamli iqtisodiyot” yo‘nalishlariga jalb qilish kabi ishlarni amaliyotga tadbiiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqilishi hamda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi hayotga tatbiiq etilishi O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanayotganligidan dalolat beradi. “Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘shirishga, korrupsiyani keskin kamayishiga imkon beradi va Prezidentimizning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qabul qilinishi ham aynan yurtimizda shu sohaning rivojlanishiga qaratiladi. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirishga mo‘ljallangan maqsadining mazmun-mohiyatini va ahamiyati juda muhimdir. Chunki sohani “drayver” deb nomlamishi ham bejizga emas, zero iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarining samaradorlik darajasini hamda barqaror iqtisodiy o‘shirishni rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Shuning uchun iqtisodiyot sohalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver”ga aylantirish, milliy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va bu yo‘nalishda investitsiyalar jalb etish zarur.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani keskin kamaytiradi. Shu o‘rinda alohida qayd etib o‘tish kerakki, yangi bir uyg‘onish davri – uchinchi Renessansga poydevor qo‘yilayotganligi istiqbolimizning ulug‘vorligini namoyon etadi. Ilmsiz, ma’rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkuldir. Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor tarmoqlar va sohalar sifatida qishloq xo‘jaligi, bank, moliya va soliq sohalar, transport, energetika, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, elektron hukumat sohalar belgilab olindi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali xalqimiz farovonligini ta’minlaydigan yorqin kelajakni ko‘zlar ekanmiz, yuqoridagi muammolar, to‘siqlar va kamchiliklar bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifasi sifatida qaralishi zarur. Agar raqamli iqtisodiyot borasida mo‘ljallangan vazifalar amalga oshirilsa, barcha sohalarida ulkan amaliy natijalar yaqqol ko‘rinadi va aholi farovonligi sezilarli darajada ortadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabardagi 2019-yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

3. 2021-yilning 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risi”gi qarori
4. G'.M.Porsayev, B. Sh. Safarov, D.Q. Usmonova “Raqamli iqtisodiyot asoslari(darslik) “fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2020
5. “Moliyachi Ma’lumotnomasi” G.Maxmudova “Raqamli iqtisodiyot va unda elektron tijoratni o’rni” 3 bet
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)